

Umida MURODOVA

821  
M-29



BAXT  
GULI

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество экземпляров  
всего

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|

84  
44-

1603

Unida MURODOVA

BAXT GULI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUD TALIM VAZIRLIGI  
TOSHIKENT VILOYATI QILOG'CHI  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
FILIALLI

Toshkent  
«Mehridaryo»

2008 YIL  
OLIV VA O'RTA MAXSUD TALIM VAZIRLIGI  
TOSHIKENT VILOYATI QILOG'CHI  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

Umda Murodova izlanuvchan, mehnatdan qochmaydigan yosh ijodkorlardan biri. She'rlari samimiyligi, soddali va ravonligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari samimiylik, soddali va ravonligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari samimiylik, soddali va ravonligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari samimiylik, soddali va ravonligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yozgan she'rlari Umda Murodovaning yosh ijodkor sifatida shakllanib, adabiy kuchga to'lib borayotganini ko'rsatadi.

Yosh shoirlarning she'rlari jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinishiga shubha yo'q.

Muallif ushbu kitobni nashr etishda homiylik qilgan «Kamolot» YIH Bo'stonliq tumani kengashiga minnatdoriлик bildiradi.

© U. Murodova «Baxt guli»,  
«Mehridaryo» nashriyoti, 2008 yil

## AYTING NOHAQLIKNI KIM TUQQAN ONA?

Qalbidan chiquvchi nidosi boshqa,  
So'zini zar bilgan fidosi boshqa,  
Izidan ergashgan dahosi boshqa,  
Ayting, nohaqlikni kim tuqqan ona?

Nahot bu zaminda yomonlar bisyor,  
Kim kimni aldaydi - kuladi xushhol,  
Go'daklar yig'laydi onasiz zor-zor,  
Ayting, nohaqlikni kim tuqqan ona?

Gohida Vatanin sotgan kaslar bor,  
El uchun nazari juda pastlar bor,  
O'zlari tuproqdan xor-u xaslar bor,  
Ayting, nohaqlikni kim tuqqan ona?

Mol dunyo talashar qarindosh, qondosh,  
Iymonin yo'qotar bo'lib bag'ri tosh,  
Farzand ham yetishar johil-u bebosh,  
Ayting, nohaqlikni kim tuqqan ona?

Iymon nurlari kirsin har dilga,  
Qur'onu tilovat bo'lsin har tilda,  
Sahovat ko'paysin bu qadim elda,  
Ayting, nohaqlikni kim tuqqan ona?

## DUGONASIN KO'ROLMAGANLAR

Osmonda oy quyoshni ko'rmas,  
Kunduz nima, tun nima bilmas,  
Boshqalarni hech ko'zga ilmas,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

Til uchida so'zlari yolg'on,  
Boqgan mayus ko'zlari yolg'on,  
Boshqalarnas, o'zlari yolg'on,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

Omadi kulib boqqanni ko'rmas,  
Gul chechaklar taqqanni ko'rmas,  
Bir Xudoga yoqqanni ko'rmas,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

Shundaylar bor insonlar aro,  
Yurak bag'ring qilarlar yaro,  
Bo'lmangiz siz bir baxtiqaro,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

Aylanadi dunyoi gardun,  
Yechilmadi dildagi tugun:  
Diling qaro bilmam ne uchun,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

O'tasanni dunyodan shunday,  
Bag'ring qaro go'yoki tunday,  
Dugonasin ko'rolmas jinday,  
Dugonasin ko'rolmaganlar.

## SIRDOSHIM QALAM BO'LDI

Ko'zimdan tomda yoshlar,  
Har tomchi alam bo'ldi,  
Topmadim biron dildosh,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

Oy yoritgan tunda ham,  
Yomg'ir yog'gan kunda ham,  
Yurtga kelganda ko'klam,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

Iqbol kulib boqqanda,  
Keng davralar yoqqanda,  
Buloq to'lib oqqanda,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

Uzoq ketdim uyimdan,  
Navo yangrar kuyimdan,  
Oh taralsa dlimdan,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

Sirdosh qaro qoshlardan,  
Bunda bag'ri toshlardan,  
Minnati ko'p oshlardan,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

Menga sirdosh bo'ldi u,  
Dilga dildosh bo'ldi u,  
Yozib adosh bo'ldi u,  
Sirdoshim qalam bo'ldi.

## O'YNA DILBAR

Chakkangga rayhon taqib,  
O'yna gul yuzli dilbar,  
Keng davralarga yoqib,  
O'yna gul yuzli dilbar.

Ushaldi bor armoning,  
Kuldi baxting, iqboling,  
Oy yuzlari hiloling,  
O'yna gul yuzli dilbar.

Baxtga yetding sen bugun,  
Yodda qolar ushbu kun,  
Shodlan aylanib gulgun,  
O'yna gul yuzli dilbar.

Portlar iqbol quyoshing,  
Atrof to'la dildoshing,  
Ayni o'n sakkiz yoshing,  
O'yna gul yuzli dilbar.

Chalindi xush navolar,  
Dilni o'rtar sabolar,  
Gul yuzingda ibolar,  
O'yna gul yuzli dilbar.

Davralar yonsin gulgun,  
Qolmasin dilda tugun,  
Haq bergan baxting uchun,  
O'yna gul yuzli dilbar.

## QISHLOG'IM

Soyliq, Oqtosh bir qishloq,  
Zilol suvi boy buloq,  
Qir, adir yashil o'tloq,  
O'sha mening qishlog'im.

Osmon o'par tog'lari,  
Tog'da qarg'a, zog'lari,  
Xush havo tong chog'lari,  
O'sha mening qishlog'im.

Sonsiz oromgoh bunda,  
Tinmaydi qish, yoz kunda,  
Bir jannat Shohi zinda,  
O'sha mening qishlog'im.

Bor qadimiy madrasa,  
Ko'ring fayzli rosa,  
Masjidlari yangi, toza,  
O'sha mening qishlog'im.

Odamlar sertakalluf,  
Kelsangiz ko'rsatar lutf,  
Ko'ngil yashnar sayr etib,  
O'sha mening qishlog'im.

Verdagi jannat asli,  
Keling yilning to'rt fasli,  
Tabiatning bir qasri,  
O'sha mening qishlog'im.



## SABR QILDIM

Osh-u nonga to'ydim men,  
Yomonligim qo'ydim men,  
Barini birdak ko'rdim,  
Sabr qildim shunda men.

Sinfdoshim yolg'onlab,  
Dugonam ham yomonlab,  
Nelar qilmadi yo Rab,  
Sabr qildim shunda men.

Ortimdan so'z aytganda,  
O'z lafzidan qaytganda,  
Debon senam bir banda,  
Sabr qildim shunda men.

Yolg'on so'zlab ko'zinga,  
Og'u solib tuzimga,  
Ming chox qazib o'zinga,  
Sabr qildim shunda men.

Do'stlikni bilmadi do'st,  
Bir o'ylab ko'rmadi do'st,  
Iymonga kelmadi do'st,  
Sabr qildim shunda men.

Alam qildi sh'er, baytim,  
Omadim kelgan paytim,  
Chin do'st bo'lg'in, deb aytdim,  
Sabr qildim shunda men.

Kiyganin ko'z-ko'z qilib,  
Mehnatkashni past bilib,  
Lek yurar ichi kuyib,  
Sabr qildim shunda men.

O'zin maqtar mohlaroy,  
Bir o'zim deb xushchiroy,  
Ichi qora hoynahoy,  
Sabr qildim shunda men.

Yolg'onlarga yo'q ko'zim,  
Ular uchun bir so'zim,  
Oллоh o'zing ber to'zim,  
Sabr qildim shunda men.

## HAR ISHNI ORZU QILMA

Nihol ekar bir bog'bon,  
Har niholda bitta jon,  
Shunday bo'l-u ey inson,  
Har ishni orzu qilma.

Xoh olim bo'l, xoh qozi,  
Xalg bo'lsin sendan rozi,  
Bo'l elning sarafrozi,  
Har ishni orzu qilma.

Bo'lib gunohkor banda,  
Omonat jon bu tanda,  
Tikan bo'lib charmanda,  
Har ishni orzu qilma.

Sen hayotni qadr qil,  
Har bir ishda sabr qil,  
Bu dunyo bir foniy, bil,  
Har ishni orzu qilma.

Xoh katta bo'l, xoh kichik,  
Yozganim shudir bitik,  
Bilib bilmay ayb etdik,  
Har ishni orzu qilma.

Aylanadi bu jahon,  
Yaxshiga ham bor ehson,  
Esingni yig', ey inson,  
Har ishni orzu qilma.

## MENI SOG'INDINGIZMU?

O'sgan ona qishlog'im,  
Zilol suv boy bulog'im,  
Chopgan dashtu o'tlog'im,  
Meni sog'indingizmu?

Sizni eslab o'kindim,  
Yodga olsam yukindim,  
Sizsiz o'tar ko'p kunim,  
Meni sog'indingizmu?

Bog'da g'uncha gullarim,  
Yurgan uzoq yo'llarim,  
Oqtosh tog'u qirlarim,  
Meni sog'indingizmu?

Ota-onam hayotim,  
Tilga ko'chgan bayotim,  
Siz hammadan ziyodim,  
Meni sog'indingizmu?

Ko'p bor borgan bozorim,  
Ham shodlik ham ozorim,  
Ukam yotgan mozorim,  
Meni sog'indingizmu?

Eslab ko'zda yoshim bor,  
Bunda g'arib boshim bor,  
Ko'nglim tortmas oshim bor,  
Meni sog'indingizmu?

## BEMORDAN XABAR OLING

Ikkita non, to'rtta qand,  
Kechikmang, boring barvaqt,  
Ko'kdan yog'ilgay rahmat,  
Bemordan xabar oling.

Boshi bolishga botgan,  
Tun uyqusiz tong otgan,  
Eshikka qarab yotgan,  
Bemordan xabar oling.

Chin insonlik tufayli,  
Doim diydor ko'raylik,  
Qadr uchun, deng mayli,  
Bemordan xabar oling.

Bemor ko'rish tan sihat,  
Diydor ko'rish g'animat,  
Ko'rganlarga ming rahmat,  
Bemordan xabar oling.

Betob bo'lsa birovi,  
Bo'lmay qolsa ham tobi,  
Bu ham taqdir sinovi,  
Bemordan xabar oling.

Bemor ko'rgani boring,  
Ko'ngliga mehr soling,  
Shifolar tilab qoling,  
Bemordan xabar oling.

Sog'lom bo'ling doimo,  
Betob bo'lmang siz aslo,  
Xiyonat etmay qismat,  
Bemordan xabar oling.

## MENI SOG'INDINGIZMU?

O'sgan ona qishlog'im,  
Zilol suv boy bulog'im,  
Chopgan dashtu o'tlog'im,  
Meni sog'indingizmu?

Sizni eslab o'kindim,  
Yodga olsam yukindim,  
Sizsiz o'tar ko'p kunim,  
Meni sog'indingizmu?

Bog'da g'uncha gullarim,  
Yurgan uzog' yo'llarim,  
Oqtosh tog'u qirlarim,  
Meni sog'indingizmu?

Ota-onam hayotim,  
Tilga ko'chgan bayotim,  
Siz hammadan ziyodim,  
Meni sog'indingizmu?

Ko'p bor borgan bozorim,  
Ham shodlik ham ozorim,  
Ukam yotgan mozorim,  
Meni sog'indingizmu?

Eslab ko'zda yoshim bor,  
Bunda g'arib boshim bor,  
Ko'nglim tortmas oshim bor,  
Meni sog'indingizmu?

## BEMORDAN XABAR OLING

Ikkita non, to'rtta gand,  
Kechikmang, boring barvaqt,  
Ko'kdan yog'ilgay rahmat,  
Bemordan xabar oling.

Boshi bolishga botgan,  
Tun uyqusiz tong otgan,  
Eshikka qarab yotgan,  
Bemordan xabar oling.

Chin insonlik tufayli,  
Doim diydor ko'raylik,  
Qadr uchun, deng mayli,  
Bemordan xabar oling.

Bemor ko'rish tan sihat,  
Diydor ko'rish g'animat,  
Ko'rganlarga ming rahmat,  
Bemordan xabar oling.

Betob bo'lsa birovi,  
Bo'lmay qolsa ham tobi,  
Bu ham taqdir sinovi,  
Bemordan xabar oling.

Bemor ko'rgani boring,  
Ko'ngliga mehr soling,  
Shifolar tilab qoling,  
Bemordan xabar oling.

Sog'lom bo'ling doimo,  
Betob bo'lmang siz aslo,  
Xiyonat etmay qismat,  
Bemordan xabar oling.



Zamindan unadur behisob chechak,  
Har neki o'simlik har ne istasak,  
Bu ne mo'jizadur aqlim lol beshak,  
Tangri ato etgan ehson ko'ringay.

Farzandlar qoshida parvona ona,  
Yuz bora aylanib giriyona ona,  
Jigarlarim deya devona ona,  
Qalbi to'la mehr-u ummon ko'ringay.

Zamin tinch bo'lsayu, el osoyishta,  
Podshoh adolati, yurt oroyishta,  
Ilmga imkon-u, mardlik har ishda,  
Bobolar kutgan xush zamon ko'ringay.

Shukrona qilaylik bergan ne'matga,  
Olloh bergan Vatan uchun xizmatga,  
Ko'ngilda joy bermang yomon ilatga,  
Shunda har bandaga rahmon ko'ringay.

Oyoqlar ostida qurt-u chumoli,  
Bir donga bog'liqdir taqdiri, joni,  
Har tanda omonat Haqning farmoni,  
O'zni sinash uchun imkon ko'ringay.

## MEHRIBONLIK UYIDA

Bu maskanda har lahza,  
Nola yig'lar, oh yig'lar,  
To'rt muchasi sog' ammo,  
Yurak bag'ri dog' yig'lar.

Bazilari ko'zdan yosh,  
To'kolinasdan yig'laydi,  
Na «ota», na «onam» deb,  
Aytolmasdan yig'laydi.

Yig'layverib ko'zlari,  
Tun kabi qaro bo'lgan,  
Orzu, umidi so'lib,  
Dillari yaro bo'lgan.

Bir mehrga zor-u zor,  
O't bo'lib yashar gohi,  
Ba'zisi umid ila,  
Yo'lda ikki nigohi.

Hatto sutga to'ymagan,  
Go'dak ko'zi qon yig'lar,  
Inson degan oriyat,  
Ona degan shon yig'lar.

Bu dillarning ohlari,  
Hech yurakka sig'maydi,  
Bittasi onam desa,  
Yuztasi zor yig'laydi.

Eh onalar, onalar,  
Nechun yonmay o'chdingiz,  
Gunohsiz farzandlardan,  
Qay yuz bilan kechdingiz?

Azob tortar ruhingiz,  
Nedur ular gunohi?  
Qiyomat kun Mahsharda,  
Savol tutar arvohi.

Farzand degan ne'matning,  
Yuzlarin yopdingizmu?  
Bolani yetim qilib,  
Bir savob topdingizmu?

Kimdir bir farzandga zor,  
Charxning ishi xushmikan?  
Mening bu ko'rganlarim,  
O'ngimni yo tushmikan?

She'rim og'ir botmasin,  
So'zim bergan Xudoyim,  
Har bir farzand berganga,  
To'zim bersin iloyim.

## TANGRIM BERSIN HIDOVAT

Uzildi dil rishatasi,  
Barbod bo'ldi umidlari.  
Xazon bo'ldi dil bog'i,  
Kim yig'laydi, kim kulari.

Sindi umid nishoni,  
Qalb oynasi ketdi darzi.  
Charxning ishi azobmi?  
Rahm, shafqat bo'lmay farzi.

Asradim dil rishatasin,  
Nozik edi u guldari.  
Tuhmatlarni yashirdim,  
Pinhon tutardim eldari.

Jondan o'tdi g'iybatlar,  
Azobda qoldi ruhlarim.  
Qorayib baxt quyoshi,  
Qalbgaga to'ldi anduhim.

Barcha bunda omonat,  
Yurakni tosh etganlar.  
Qadrim emas qorrim deb,  
Vijdon yutib ketganlar.

Qadrim uchun yig'ladim,  
Men och qolgan qizmasman.  
Ziyo bo'lib porlarman,  
Qorda qolgan izmasman.

Parchalading etimni,  
Yurak bag'rim etib qon.  
Qondosh bo'lmasam ming bor,  
Shod bo'lardim ey inson.

Nasib etsa Ollohim,  
Chamanlarda ochilgum.  
Bir iforli gul bo'lib,  
Ko'ngillarga sochilgum.

Begunoh tuhmat qilib,  
G'iybatlardan qolmayasan.  
Senga ham bir kun kelar,  
Qochib yashay olmayasan.

Hayot asli charxpalak,  
Tinmay yurar gardundir.  
Kelar senga ham navbat,  
Shunda holing zabundir.

Dil rishatasi nozikdir,  
Olloh bergan inoyat,  
Vijdonsiz insonlarga,  
Tangrim bersin hidoyat.

## VATANIM

Shu vatanning suyay zarrasin,  
Shu vatanni Oллоh asrasin.

Ona yurtim cheksiz sinoat,  
Haqing uchun qilay tilovat.

Men uchun zar tuprog'ing aziz,  
Sahro, qurning, o'tlog'ing aziz.

Har bir nihol tol-u teraklar,  
Oллоhim deb qilar tilaklar.

Menga aziz har jonzoting,  
Shu tuproqda barcha hayoting.

Eng azizi beshikda go'dak,  
Ul haqiga qilaman tilak.

Nuroniychol, munis onalar,  
Tengsiz menga ul durdonalar.

Tug'uldim shu ona zaminida,  
Ming roziman sevaman chindan.

Shu vatanga bo'lolsam sodiq,  
Men uchun baxt boshqasi ortiq.

Elim uchun suyuq bo'lolsam,  
Birga yashab, birga yonolsam.

Ona yurtim etolsam e'zoz,  
Bir Xudodan o'tinchim, xolos.

Barcha qalbga baxsh etgum iymon,  
Iymoni but bo'lsin har inson.

## YOMON BO'LMASAM BO'LDI

Bir kun kunlar kelganda,  
Elga yor-yor to'lganda.  
Yurtim meni bilganda,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Bir kuylab Oxun bo'lib,  
Bir so'zlab chaqin bo'lib.  
Dillarga yaqin bo'lib,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Oy kabi to'lganimda,  
Quyoshdek kulganimda.  
Shoira bo'lganimda,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Bor giyohni asrolsam,  
Har bemorga qarolsam.  
Vatan uchun yarolsam,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Otanga ko'p mehribon,  
Onam uchun bersam jon.  
Ukam desin opajon,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Ilimga hissa qo'shsam,  
Bilimga hissa qo'shsam.  
Elimga hissa qo'shsam,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.

Yurtim shanin ko'tarsam,  
Nomus orin ko'tarsam.  
Iymon, shonin ko'tarsam,  
Yomon bo'lmasam bo'ldi.



## TOSHGA AYLANMAGIN MENING YURAGIM

Tong sahar ko'z ochgan quyoshga boqqin,  
Esgan nasim sabo, yo'ldoshga boqqin,  
Dardin aytgan do'st-u shirdoshga boqqin,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

Yig'lagin yuragim ko'zda yosh bo'lsin,  
Shudring kabi singib dillarga to'lsin,  
Sening tating ila yomonlik o'lsin,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

Dalada ishlagan dehqon qadrin bil,  
Hurmat ila kelgan mehmon qadrin bil,  
Ilm uchun fursat imkon qadrin bil,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

Ojizni ko'rganda mehridaryo bo'l,  
So'qirni uchratsang nur-u ziyo bo'l,  
Kimki ko'ngli xasta mehriygo bo'l,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

Xalq uchun doimo Haqqa to'l mayli,  
Ishq bor joyda ishqi beshak bo'l mayli,  
Oллоh bizni suysin ishqiing tufayli,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

Men uchun tanamda gul, chiroy o'zing,  
Dilga ziyo berar to'lin oy o'zing,  
Qattiqgo'l, nozigim, erkatoy o'zing,  
Toshga aylanmagin yuragim mening,  
Yolg'iz qadrdonim, keragim mening.

## TAVBA QILGAN ODAM

Og'ir bo'ldi qadamlar uzog-uzog bosildi,  
Qancha orzu umidlar o'z doriga osildi.

Cheksiz qaro tunlarda yig'lar bo'ldi yuragim,  
Oллоh nasib etsin deb diydor bo'ldi tilagim.

Tomchilar cheksiz marjon ko'zlarim qarog'iga,  
Javob izlab topmasman shu qalbim so'rog'iga.

Hir so'rab o'rni oldim, nafsimning quli bo'ldim,  
Bihu dunyo deb berildim, shaytonning yo'li bo'ldim.

Bilmadim bu dunyoning omonat ekanini,  
Yolg'on so'zlarim boshga malomat ekanini.

Aldadim ko'plarni goh, yolg'on uchdi tilimdan,  
Boyluk izlab ko'zlarim hech qaytmadi zulimdan.

Dunyo uchun g'am yedim omonat deb bilmadim,  
Umridim oxiratni, Haqni ko'zga ilmadim.

Qilgan gunohlarim ko'p, bu dunyoga sig'maydi,  
Ho'ra, namoz qilmadim endi vijdon yig'laydi.

Toshdan qattiq bu mehrim sel bo'lib oqayotir,  
Bhayton ustimdan kulib vijdonim yogayotir.

Endi yolg'iz Oллоhga sajda qilay tun-u kun,  
Habbim o'zing kechirgin, ich-u bag'rim bo'ldi xun.

Qolgan umrimni endi Oллоhga fido qilay,  
Tun-u kun xizmatida Xudo deb nido qilay.

Tavba qildim qabul et, cheksiz bo'ldi gunohim,  
Kechmasang holim yomon kechir meni, ilohim.



## KELADUR

Bu bahor ayyomida, gulyuz nigorim keladur,  
Ko'nglimni shod etgali, ko'ngli bahorim keladur.

Navro'zdayin shod aylab, men g'aribni yod aylab,  
Dillarni obod aylab, ul navbahorim keladur.

Guldek yuzin berkitib, shahlo ko'zin sir etib,  
Qalbi bizga so'z aytib, nomus-u orim keladur.

Kapalakday chamanda, bitta jon ikki tanda,  
Men diydorin ko'rganda, halquma jonim keladur.

Kutgandim uzog kunlar, oylar kutdim va tunlar  
Qarang bag'ri butunlar, ko'zi xumorim keladur.

## BORMIKAN

Hevdim gulzor chamanni, bunday chaman bormikan?  
Hevdim ona Vatanni, bunday Vatan bormikan?

Hebolarim yurti shul, sahrosida o'sar gul,  
Tuproqlari misli dur, bundek chaman bormikan?

Ikki daryo bog'larim, oltin paxta, tog'larim,  
Ipak tergan chog'larim, mendek inson bormikan?

Terhur bobom rag'bat, Navoiyning xilgati,  
Buxoriyning hikmati, bunday davron bormikan?

Ilm-u hikmatdan chinor, qurishgan azim minor,  
Ko'lma tarix betakror, bilmas nodon bormikan?

Duoga ochay qo'lim, doim shod bo'l ey elim,  
O'rganib olsam ilm, mendek baxtli bormikan?

## LOLA QIZG'ALDOQ

Qirlarning yon bag'ridan,  
O'sib chiqqan qizg'aldoq.  
Ayt sen kimdan uyalding,  
Qizil yuzli gul yanog.

Toza havo, toza suv,  
Qirdami uy makonimg.  
Kimdan qochib kelding sen,  
Omonatni bu jonimg.

Yong'irlarda, do'llarda,  
Gul barglaring tilingan.  
Asrab ona tabiat,  
Senga ko'ngli ilingan.

Qizil, alvon jamolimg,  
Meni maftun etasan.  
Hech kim xazon qilmasa,  
Sen orzuga yetasan.

Yur men bilan qizg'aldoq,  
Gulzorlarga ketamiz.  
Bir-birimiz avaylab,  
Ko'ngil izhor etamiz.

## MUSTAQILLIK

Ozod ona yurtim, ozod diyorim,  
Ulug' miliatimg bor obod diyorim,  
Har kim havas qilsa arzigay senga,  
Iymon e'tiqodi sharmshod diyorim.

Bobolar orzusi hurlikka yetdik,  
Til va dil orzusi erklikka yetdik,  
Ilm-u fan, ijodda kenglikka yetdik,  
Men ham senga sodiq zuriyod diyorim.

Qancha imoratlar qad rostladi ko'r,  
Baxting osmonida sen muallaq tur,  
Shu kunga yetkazgan tangriga shukur,  
Dunyoda tengsiz bo'l bunyod diyorim.

Beshiklar doimo go'dakka to'lsin,  
Keksalar to'abad duoda bo'lsin,  
Mustaqillik to'ying muborak bo'lsin,  
Shirin ham o'zingan, Farhod diyorim.

Temur bobom qo'ygan ulug' poydevor,  
Olim-u adiblar, tengsiz har me'mor,  
Yurtboshimdek buyuk rahnamoyim bor,  
Bayrog'ing baland tut ozod diyorim.

## QO'RQAMAN

Turfa shodlik, so'z, ozor,  
Ko'pni ko'rgan bu bozor,  
Kim baqol, kim xaridor,  
Tumonatdan qo'rqaman.

Bu - shirin so'z sotuvchi,  
Aldab taroz tortuvchi,  
Haqdan qo'rqib gotuvchi,  
Adolatdan qo'rqaman.

Iymon uyin buzmay deb,  
Haromga qo'l cho'zmay deb,  
Ko'z yoshida suzmay deb,  
Qiyomatdan qo'rqaman.

Kimlarnidir qilsam xor,  
Savoblarga bo'lsam zor,  
Ro'zi Mahshar sharmisor,  
Zalolatdan qo'rqaman.

Hech bilmasam ilmni,  
Islom bergan bilimni,  
Haqqa ochmay dilimni,  
Jaholatdan qo'rqaman.

Yoshing yetsa ham yuzga,  
Ehtiyot bo'l har so'zga,  
Yodga kelgan bir o'zga,  
Xayolatdan qo'rqaman.

Mangu yashar charxi dun,  
Barcha ne'mat biz uchun,  
Qo'lla Egam Mahshar kun,  
Xurofordan qo'rqaman.

## TO'RTLIKLAR

\*\*\*  
Qorong'u bu dilga ziyo ber, Rabbim,  
Men osiy qulingga rizo ber, Rabbim.  
O'tkinchi dunyoda g'afolatga botmay,  
Qalb gavhari bo'lgan duo ber, Rabbim.

\*\*\*  
Shukur aytay Tangriga ming bora, har on,  
Yaratdi g'oyibdan mukammal inson.  
Xatodan xolimas fanoda hech zot,  
Ba'zi bir ishlarim yomondan yomon.

\*\*\*  
Hech kimsa qidirmas aybni o'zidan,  
Siyrati oshkora aytgan so'zidan,  
Kim chohga yiqilsa, sayyoddan ko'rar,  
Ranjimas ruhining so'qir ko'zidan.

\*\*\*  
Tilim ko'p tortishma zamon bahsidan,  
O'rgangin ogillar ilm-u naqshidan,  
Vijdonim amrila bajar har ishni,  
Javobi qaytadi yomon - yaxshidan.

\*\*\*  
Ba'zan molparastga dunyo farovon,  
Uy-joyi badastir, mol to'la do'kon,  
Miskin-chi nonga zor, lek bilmaz hech zot,  
Bularning barchasi Haqdan imtihon.

## QO'RQAMAN GOH HAYOTDA

Qo'rqaman goh hayotda,  
Bilmay qilgan ishından.  
Vijdonim azob tortar,  
Goh ba'zi qilmishimdan.

Ona tabiat uchun,  
Bir nihol yaratmadim.  
Gulzor aro gul ekib,  
Xush atrin taratmadim.

Bir bog'bondek go'zal bog',  
Yarata olsam edi.  
Samodagi oyni ham,  
Qarata olsam edi.

Shoiradek dillarga,  
Bir cho'g' sololganim yo'q.  
Shu elimning ko'nglini,  
Bir bor ololganim yo'q.

Vatanim tug'in olib,  
Ko'klarga uchgim kelar.  
Hatto samoni, oyni,  
Yulduzni quchgim kelar.

Alyor aytib dillarni,  
Yig'latib, kuldirolsam.  
Bu Vatan diyorimni,  
Shodlikka to'ldirolsam.

Shukrim aytay Tangriga,  
To'rt muchamni sog' berdi.  
El dardila yasha deb,  
She'r atalmish bog' berdi.

## SEKIN TEBRAN EY FALAK

Ko'kda oy qimirlaydi,  
Yulduzlar jimirlaydi,  
Ko'nglim hadiksiraydi,  
Sekin tebran ey falak.

Olamda bor har jonzod,  
Tinchlik istaydi hayhot,  
Sen bo'lma buncha shaddod,  
Sekin tebran ey falak.

Aslo qo'rquv solmagin,  
Aql-u hushim olmagin,  
Bemor bo'lib qolmagin,  
Sekin tebran ey falak.

Hatto uchgan kapalak,  
Chumoli ham jon halak,  
Daraxtlar sarak-sarak,  
Sekin tebran ey falak.

Aylanasan, tinmayсан,  
Hechni ko'zga ilmayсан,  
Hayot shirin bilmayсан,  
Sekin tebran ey falak.

Dunyo ham bir sinoat,  
Tog'da tosh ham omomat,  
Sen qilmagin xiyonat,  
Sekin tebran ey falak.

Ko'nglin olgin ichikni,  
Asra katta kichikni,  
Bola yotgan beshikni,  
Sekin tebran ey falak.



## OQIBATSIZ OILA

Aka-uka chiqdi noahil,  
Sig'may goldi bitta hovliga,  
Bir kosaga siqqan oshxamir,  
Sig'may goldi katta chovliga.

Ota-ona parvoyi falak,  
Ular ahil bo'lsin demadi,  
Qolmadi hech mehr-u oqibat,  
Jigarlari g'amin yemadi.

Biri uzoq biri yaqinga,  
Ko'chib chiqdi farzandini olib,  
Oqibatsiz bo'lib ketdilar,  
Mehr yig'lar dog'larda qolib.

Ona bolam qaylarda demas,  
Ota bir bor nasihat etib,  
Insoniylik yo'qoldi axir,  
Bu dunyodan o'tarlar ketib.

Og'ir kunda yaramadi hech,  
Bir bor ko'zin, nigohn tashlab,  
Haq bo'ldilar o'zlar uchun,  
Iymon qoldi ko'zlarin yoshlab.

Ko'ngil qolib bir-birlaridan,  
Nozik ko'ngil shuncha nozmisan,  
Jigardan ham ustunmi g'urur,  
Nobop g'urur shuncha g'ozmisan.

Mehr qani farzandlar uchun,  
Hurmat qani ota-onaga,  
Yozmoq mushkul bunday ishlarni,  
Tuz bosgandek eski yaraga.

Ey insonlar, ey mukarram zot,  
Oллоh uchun ahil bo'linglar,  
Inson degan nomni yo'qotmang,  
Har bir ishda sabr qilinglar.

## EZGULIK QIL, EY INSON

Zavolsiz yashay desang,  
Haq yo'lga tushay desang,  
Dovonlar oshay desang,  
Ezgulik qil, ey inson!

Imkoning bo'lgan qadar,  
Kunduz-u kech yo sahar,  
To tanda joning yashar,  
Ezgulik qil, ey inson!

Ezgulik chinor bo'lgay,  
Savob ko'shk, minor bo'lgay,  
Iymoning bahra olgay,  
Ezgulik qil, ey inson!

Oxirat g'amin yegin,  
Faqat haq so'zni degin,  
Chekmaysan afsus keyin,  
Ezgulik qil, ey inson!

Beribdi Oллоh ne'mat,  
Elga ber, olib rahmat,  
Qilmagin aslo minnat,  
Ezgulik qil, ey inson!

Saxovat ko'ngil olar,  
Ruhingga poklik solar,  
Dillarda noming qolar,  
Ezgulik qil, ey inson!

Bo'shatgan o'qni karon,  
O'tmoqda yil-u zamon,  
Kutyapsan neni hamon?  
Ezgulik qil, ey inson!

## ITYMONNI UNUTIB QO'YMASAM BO'LDI

Sertashvish zamonda dunyoga kelib,  
Sinov-u shodlikda yugurib yelib,  
Omonat umrda bilmayin bilib,  
Iymonni unutib qo'ymasam bo'ldi.

Ba'zida gap-u so'z talashib tursam,  
Behuda urushib-yarashib tursam,  
Bid'atda iblisga qarashib tursam,  
Vijdonni unutib qo'ymasam bo'ldi.

Gar xabar olmasam keksa bemordan,  
Yo'limga intizor, zaif, beholdan,  
Yuzimni o'girib nuri iqboldan,  
Sarbonni unutib qo'ymasam bo'ldi.

Berilsam dunyoga, mol-u zarga goh,  
Qalbinga yo'l topsa shayton-u gumroh,  
So'ramoq Egandan shafqat-u panoh,  
Imkonin unutib qo'ymasam bo'ldi.

Siyratga nur bergan so'ylaguvchi til,  
Haromni haloldan farqlaguvchi dil,  
To'qson to'qqiz isming G'affor-u Sobir,  
Rahmonni unutib qo'ymasam bo'ldi.

Bandaman, savobdan ko'pdir gunohim,  
Ruhimni o'rtaydi armon-u ohim,  
Omonat dunyoni tark chog'im,  
Haqgoni unutib qo'ymasam bo'ldi.

## VATANIM

Men tug'ilgan yil sen ham,  
Ozod bo'lding Vatanim,  
G'uboring ketib dildan,  
Obod bo'lding Vatanim.

Istiqloling barq urar,  
Har go'sha har oshyonda,  
Dunyo seni tan olar,  
Har lahza har zamonda.

Elidan chiqqan o'g'lonlar,  
Noming jahon tararlar,  
Qo'rqmas, jasur posbonlar,  
Vatan uchun yararlar

Har go'sha-yu maskanda,  
Vatan degan shoning bor,  
Oллоh bergan ma'daning,  
Paxta degan koning bor.

Faxrlanib shul vatanda,  
Tug'ilidik hur zamonda,  
Din-u tilga ega bo'ldik,  
Diyor tinch el omonda.

Yangi-yangi ilm uchun,  
Eshiklaring ochding sen,  
Imkoniyat ko'p cheksiz,  
Iymon nurin sochding sen.

## QIZALOQ VA AVIQCHALAR HAQIDA RIVOYAT

Uzoq o'tmish zamonda,  
Bo'lgan ekan go'zal qiz.  
Uning juda saboqli,  
Rivoyatin tinglangiz.  
Yoshlikdan oq orzusi,  
O'qish ekan shaharda.  
Doim aytar bir so'zi:  
«Borgim kelar shaharga»  
Ulg'ayibdi sho'x, shaddod,  
Havasi mol dunyoga.  
Qarshilikka aytib dod,  
Yo'l olibdi shaharga.  
Oliy o'quv yurtiga,  
Joylashibdi u asta.  
Sershovqin bu shaharga,  
Ko'nikibdi birpasda.  
Yillar o'tib oradan,  
U qishloqqa qaytibdi.  
O'qimishli yigitla,  
Ahdu-paymon aytibdi.  
To'y bo'libdi qishloqda,  
Barcha baxtdan shodlanib.  
Bildirildi tilaklar,  
Go'zal sherlar yodlanib.  
Ishlar ekan liktisi,  
O'ziga to'q ziyoda.  
Baxtli inson ulardek,  
Yo'q go'yoki dunyoda.  
Oylar o'tib oradan,  
Ayol farzand kutarkan.  
Bu farzandni eriga,  
Tashvish deya aytarkan

Yigit uni fikridan,  
Qaytarmogchi bo'libdi.  
Bogib katta qilaylik,

Deb nasihat qilibdi.  
Lek ko'nmabdi ayoli:  
«Men bolani boqmayman.  
Yoshlik umrim armonda,  
G'am, tashvishda oqmayman»  
So'ngra tug'ib birovga,  
Berishga u ko'nibdi.  
Olaning umidi,  
Nishoni ham so'nibdi.  
Qiz tug'ildi otasi:  
«Bolan» derdi ko'p suyib.  
Lek onasi qutulish,  
Yo'lin o'ylardi kuyib.  
Bir tong sahar bolani,  
U yo'rgakka joyladi.  
Bog'ich bilan belidan,  
Mahkam qilib bog'ladi.  
So'ng go'dakni ko'tarib,  
Tog'lar sari yo'l oldi.  
Buni ko'rgan otani,  
Es hushi ham yo'qoldi.  
O'tdi yarim kuncha vaqt,  
Ayol marmun, shod qaytdi.  
«Bor tashvishdan qutuldim»  
Deb eriga so'z aytdi.  
Lekin uning so'zlarin,  
Ota tinglay olmasdi.  
Ayolning hech so'ziga,  
Aslo quloq solmasdi.

U kelguncha bechora,  
Oyoq qo'ldan qolgandi.  
Bir so'z ayta olmasdi,  
Oloh hushin olgandi.  
Oloh bersa insonga,  
Bir zumdayoq berarkan.  
Desa: «Hushin olaman»  
Shu lahzada olarkan.  
Endi tinglab bilaylik,

Go'dakning ahvolini.

U yovvoyi tog'dagi,

Murg'ak qizning holini.

Tog'u-toshlar ortiga,

Tashlab ketdi onasi.

Go'dak bag'rin kuydirib

Bo'zlatdi o'z bolasin.

Ona ketdi go'dagi,

Fig'on, faryod zor qoldi.

Inson degan bir qismat,

Ayol degan or qoldi.

Toshlar aro yotardi,

Mehrga zor, murg'ak qiz.

Shu go'dakning nolasin,

Siz eshitib tinglangiz:

«Tashlab ketma onajon,

O'zing birla olib ket.

Yirtqichga yem qilmasdan,

Bir qabrga solib ket.

Meni tashlab ketarsan,

Ko'zingda yo'q yosh onam.

Qatig deding sen toshni,

Bag'ring undan tosh onam.

Tashlab ketib sen meni,

Ne murodga yetarsan?

Tangrim so'rsa oxirat,

Ne deb javob etarsan?

Meni tashlab ketarsan,

Jigga yoshlab ko'zlarim.

Nechun meni tugqanding?

Tinglamasang bo'zlarim.

Eshitmasang nidoim,

Azoblarda yonib ket.

Tashlab ketsang farzanding,

Sen armonda qolib ket».

Tashlab ketdi onasi,

Zor yig'latib go'dakni.

Nahot hech kim ko'rmasa,

Mehrga zor murg'akni.

Ko'rib ona tabiat,

Chiqdi ko'kka fig'oni.

Tinglang uning galbidan,

Ushbu achchiq nidoi:

«Ona nechun tashlading,

Ushbu parcha etingni.

Qalin qilding shunchalik,

Gul deishgan betingni.

Ana, boq chor atrofga,

Sendek emas hech jonzod,

O'z bolasin suyadi.

Axir sen ham odamzod.

Butun borliq zor yig'lar,

Bag'rim tilding sen mening,

Qani iymon, insofing,

Mehring qani ayt sening.

Kunlar o'tib bir kuni,

Zor bo'lasan onajon.

Ammo unda bolangni,

Topolmayсан hech qachon.

Fursat o'tib sen uchun,

Unut bo'lar bu ishing.

Lek tabiat hech qachon,

Kechirmas bu qilinishing».

Sinash uchun tabiat,

Katta yirtqich bo'rini.

Bola yotgan joy tomon,

Soldi uning yo'llini.

Yetib keldi bo'z bo'ri,

Shu go'dakning qoshiga.

Birdan changal solmadi,

Rahm qildi yoshiga.

Balkim uning aqli bor,

Fikrlab ko'p o'yladi.

Yirtqich bo'ri o'ziga,

Shunday deya so'yladi:

«Eh odamzod, odamzod,



Sen borliqning zo'risan.  
Lekin gumroh bandasan,  
O'z bolangning sho'risan.  
Farzandingga sen meni,  
Yirtqich deya aytasan.  
Insoniylik qasriga,  
O'zing qachon qaytasan?  
Yovuz, qonxo'r bo'riman,  
Rahm nima bilmayman.  
Shuncha yovuz bo'lsam ham,  
Sendek ishlar qilmayman.

Adog'i bor umringga,  
Bir kun javob berarsan.  
«Inson» degan shonni sen,  
Qanday oqlab yurarsan?  
Tog'-u dastni kezarman,  
Ne rizq bersa osharman.  
Men bolamdan kechmayman,  
Bolam uchun yasharman»  
U bolani avaylab,  
Yo'rgagiga tish soldi.  
Chaqalogni ko'tarib,  
Tog'lar sari yo'l oldi.  
O'tdi gancha soylardan,  
Toshlardan ham oshdi u.  
Yetay dedi manzilga,  
Shamol kabi shoshdi u.  
Ko'rgan har bir tosh, daraxt,  
Unga tahsin derdilar.  
«Tabiat shu go'dakni,  
Bo'ri bogsin» derdilar.  
Yetib bir soy bo'yiga,  
Go'dagini qo'yadi.  
Toza changagan chog'i,  
Tushib suvga to'yadi.  
So'ng qaytdi o'ljasiga,  
Kelib ko'rdi bu ne hol.  
Qo'ng'ir ayiq o'ljasin,

Iskar edi bemaol.  
Bo'ri kuchi yetmasa,  
Hamki hamla qilardi.  
Deya o'lja meniki,  
U go'dakni tilardi.

Ayiq beray demaydi,  
«Kuching yetsa ol» deydi.  
«Bola endi meniki,  
O'zing yakka qol» deydi.  
Kelisholmay jang bo'ldi,  
Bu tabiat qonuni.  
Oxir bo'ri charchadi,  
Chiqmay qoldi hech uni.  
So'ng bolani ko'tarib,  
Ayiq darrov jo'nadi.  
Bo'ri qolib noiloj,  
Shun taqdirga ko'nadi.  
Ayiq keldi iniga,  
Juft bolasi bor ekan.  
Bolalari baxti-yu,  
Tol'e unga yor ekan.  
Bolalari chopqillar,  
Tortishadi har zamon.  
Suvar edi erkalab,  
Ona ayiq mehribon.  
Shu on go'dak yig'ladi,  
Qorni juda och chog'i.  
Rahmi keldi ayiqning,  
Jo'shib mehr qarog'i.  
Qo'lga olib go'dakni,  
Asta tortdi o'ziga.  
Sut berdi o'z bag'ridan,  
Bogib munchog ko'ziga.  
Ayiqchalar va go'dak,  
To'yib-to'yib oldilar.  
Orom olib tanlari,  
So'ngra uxlab qoldilar.

Ayiq go'yo bolasi,  
 Bogib oldi go'dakni.  
 Tol yog'ochdan bir beshik,  
 Yasab soldi murg'akni.  
 Tabiatga erta tong,  
 Shunday nola qildi u.  
 Ogil kabi o'yladi,  
 Dildan jola qildi u:  
 «Menga ona tabiat,  
 Berding ushbu go'dakni.  
 Bogib katta qilaman,  
 Bu qizaloq sergakni.  
 Bolam deyman men uni,  
 Tabiatdan so'z olib.  
 Bogay go'yo farzandim,  
 Mehrimga u ko'p qonib.  
 Mayli desin odamlar,  
 Bu ertak, sehr bordur.  
 Lekin shuni bilsinlar,  
 Toshda ham mehr bordur.  
 Kim boladan voz kechsa,  
 Qalbga to'lsin g'ussalar.  
 Qayda yig'lab qolsa ham,  
 Shunday murg'ak jussalar.  
 Bola Olloh ne'mati,  
 Xoh inson, xoh hayvonmiz.  
 Ba'zan inson ishiga,  
 Biz hayvon ham hayronmiz»  
 Shunday qilib qizaloq,  
 Ayiqqa bola bo'ldi.  
 Dala-dashtda o'suvchi,  
 Bir qizil lola bo'ldi.  
 Goh beshikni daryoga,  
 Sudrardi ona ayiq.  
 O'ynatardi go'dakni,  
 Misli go'zal bir qayiq.  
 Shu on ona tabiat,  
 Kamalagin yoyardi.

Ayiqcha ham qizaloq,  
 Ko'rib ko'ngli gonardi.  
 Shu kamalak ranglari,  
 Tovlanardi turfa xil.  
 Shundan rangli beshiklar,  
 Inson ko'rsa quvvar dil.  
 Shundan buyon ehtimol,  
 Beshik turli rang olar.  
 Kamalakning ranglari,  
 Har beshikda jonlanar.  
 Ehtimol tol daraxti,  
 Beshik uchun yaralgan.  
 Go'dak uchun yotoqdek,  
 Keng dunyoga taralgan.  
 Tunlar beshik yoniga,  
 Chigirtkalar keldi.  
 Ular alla aytganda,  
 Tungl sabo yelardi.  
 Shunda katta chigirtka,  
 Timmay beshik tebratar  
 O'shandan buyon uning,  
 Nomi «beshiktebratar».  
 Tong yorishsa barchasi,  
 Uy-uyiga qaytardi.  
 Tunlar beshik yonida,  
 Shunday alla aytardi:  
 «Uxla jaji qizaloq,  
 Butun bo'lsin oroming.  
 Tinib, to'yib uxlagin,  
 Ko'proq bo'lsin darmoning.  
 Onam yo'q deb o'ksinma,  
 Ayiq erur shu onang.  
 Seni doim himoya,  
 Qiluvchi bir hamxonang.  
 Uxla jaji qizaloq,  
 Bo'lg'in baxti, iboli.  
 Inson bo'lib ulg'ay lek,  
 Bo'lg'in mehr-u vafoli.

Oilangni, gavrimgni,  
Aziz bilib saqlagin.  
Ardoqlagin har jonni,  
Inson bo'lib oqlagin.  
Uxla jaji qizaloq,  
Ko'zlaring yosh ko'rmasin.  
Shunday farzand bo'lginki,  
Yuraging tosh bo'lmasin.  
Bosgan har bir izingdan,  
Rayhon-u gul unsinlar.  
Aql-u, husn-u odobda,  
Senga havas qilsinlar.  
Uxla jaji qizaloq,  
Xudo senga yor bo'lsin.  
Alla aytay uxlagin,  
Qalbda mehr bor bo'lsin».

Alla aytar chigirtka,  
Tunlar tinim bilmaydi.  
Shu o'ngirida ayqlar,  
Va qizaloq uxlaydi.

Tun oymomo nurlarin,  
Shular uchun sochardi.  
Yulduzlar ko'z berishib,  
Tun chiroyin ochardi.  
Tong saharda ser quyosh,  
Bir ilqlik taratar.  
Go'yo har kun borliqni,  
U qaytadan yaratar.  
Zilol suv ham, soydagi,  
Oqar edi sharaqlab,  
Suvning ajib shulasi,  
Tovlanardi yaraqlab.  
Neki jon bor atrofda,  
Suvdan bahra olardi.  
Borliq bari shu suvdan,  
Ko'p minnatdor bo'lardi.  
«Men ham alyor aytayin»,  
Suv shunday der: «qizaloq,

O'zim yuvib tarayman,  
So'zim tingla sen ko'proq.  
Tomchi bo'lib aslida,  
Quyilaman samodan.  
Qishda esa qor bo'lib,  
Joy olaman tog'lardan.  
Asli odam hayotning,  
Bir chechagi bo'ladi.  
Yaxshilari ko'p ammo,  
Yomon uchrab turadi.  
Sahroga suv keltirib,  
Bog'lar qildi odamzod.  
Bosh chanogdan qasrlar,  
Tog'lar qildi odamzod.

Toshlarga ham gul ekib,  
Gulzor qilgan odamlar.  
Bir-birini pichoqsiz,  
Bag'rin tilgan odamlar.  
Ko'p yangilik yaratib,  
Oyga yetib bordilar.  
Lek bir birin kaltaklab,  
Qul bozorga soldilar.  
Olloh uni yaratdi,  
Inson boshi ongidir.  
Jonzotlarni ko'rganda,  
Lekin qo'li qonlidir.  
Yashash uchun kerak deb,  
Pul yaratdi odamzot.  
Oqibat shu pullarning,  
Quli bo'ldi odamzot.  
Meni Olloh yaratgan,  
Suvman hayot yo'ldoshi.  
Odam uchun uyalgan,  
Shu toshlarning ko'z yoshi.  
Aytaversam gaplarim,  
Tugamaydi adog'i.  
Inson fikr qilmasa,  
Yuvilmaydi dil dog'i».

Suv shunday deb oqardi,  
Dillarga o't yoqardi.  
Nola edi, suv asli,  
Jola edi, ko'z yoshli.  
Kunlar, oylar o'tdilar,  
Quvlashib va sho'x shodon.  
Tez ulg'ayar qizaloq,  
Ayiqchalar pahlavon.

Ayiq toshlar oralab,  
Asal topib kelardi.  
Ko'rib darrov bolalar,  
Tez yugurib yelardi.  
Goh dorivor o'tlardan,  
To'yib-to'yib yer edi.  
Qizaloq shu ayiqni,  
«Onajonim» der edi.  
Yillar o'tdi izma-iz,  
Qish-u yozni ko'rdilar.  
Bari bir tan, bitta jon,  
Bir oila bo'ldilar.  
So'nggi bahor kunlari,  
Ayiq topay deb yemish.  
Uzoq ketdi uyidan,  
Yemish topish qiyinmish.  
Bolalari qoldilar,  
Ayiqchalar, qizaloq.  
Uyidan sal narida,  
Yaylovcha va ko'k o'tloq.  
Ayiq ancha yo'l yurdi,  
Oshib soy-u qirlardan.  
Yemish olib kelardi,  
Hovliqib u kimlardan?  
Shu atrofda ovchilar,  
Yuradilar ov qilib.  
Bo'sh qo'yishib itlarin,  
Tog' yo'llarin g'ov qilib.  
Itlar ayiq isini,  
Birdan tuyib qoldilar.

Va tog'larga beo'xshov,  
Shovqin suron soldilar.

Sezib darhol ovchilar,  
Uni o'rab olishdi.  
Ona ayiq boshiga,  
Ne kunlarni solishdi.  
Hayot uchun, jon uchun,  
Tog'lar ichra bo'ldi jang.  
Ona ayiq ahvoli,  
Ojizlikdan bo'ldi tang.  
Osmon ko'rib bu jangni,  
Yoshin to'kib dod soldi.  
Essiz ona ayiqni,  
Ovchilar qo'lga oldi.  
Ovchilar der o'zaro,  
«Xo'p ov keldi o'ngidan.  
Endi kiyim tikamiz,  
Shu ayiqning yungidan».  
Kindir derdi: «Terisin,  
Osay uyning to'riga.  
Havas qilsin odamlar,  
Mendek ovchi zo'riga».  
Yana kimdir: «Tishlarin,  
Olay» deydi «sug'urtib»  
«Sotib uni bozorda,  
Qolay» deydi «boy bo'lib»  
«Go'shti mayin» der biroq,  
«Kesib qopga solarman.  
Terisidan men ham bir,  
Mahsi qilib olarman».  
Bular jonni ovlovchi,  
Har ne deb so'z etishdi.  
Ov bahona bir ona,  
Boshiga ham yetishdi.

Shunday qilib ayiqni,  
Tilka pora qildilar.  
Ular sho'rlik onani,



Zo'r o'lja deb bildilar.  
 Ko'rgan tosh-u daraxt ham,  
 Bunga hayron edilar.  
 «Inson zoti dunyoda,  
 Eng vahshiy zot» derdilar.  
 Bir archada oppoq qush,  
 Turgan ekan kuzatib.  
 Shunda qush ham ularga,  
 Nola qildi so'z aytib:  
 «To'xtang, shoshmang odamlar,  
 O'ldirmang u onadir.  
 Ehtimol shu tog'larda,  
 Noyob va birdonadir.  
 Boqib inson bolasin,  
 Mehr bergan shu edi.  
 Ertak kabi tog'larga,  
 Sehr bergan shu edi.  
 Bir tashlandiq bolani,  
 Boqib olgan shu ona.  
 Mukofoti oxirat,  
 Yovuzlikdir yagona.  
 Balki ushbu qilmishing,  
 Ila bizga yoqmayasan.  
 Zo'r bo'lsang o'z bolangni,  
 Nechun o'zing boqmayasan.  
 Sen sug'urgan tishlarda,  
 Ovqat tashib boqganku.  
 Sen shilgan bu terini,  
 Ko'rpa qilib yopganku.

Qara tosh ham yorildi,  
 Sening ushbu ishingdan.  
 Xijolat ham chekmaysan,  
 Zahar sochib nishingdan.  
 Sen bir gulni o'ldirding,  
 Uch g'unchaga u qayiq.  
 Tashlab ketgan bolangga,  
 Ona edi shu ayiq».  
 Oppoq qushga qo'shilib,

Barcha yig'lar tog'larda.  
 Lek odamzod bilimaydi,  
 Bir kun qolar dog'larda.  
 Daraxtlarning tomiri,  
 Bir tebranib oldilar.  
 Zilol suvlar soylarda,  
 Dodlar solib qoldilar.  
 Yig'lar ona tabiat,  
 Ko'zdan oqar jolalar.  
 Yig'lamasmu ko'rsa qon,  
 G'orda qolgan bolalar.  
 Ona ayiq qismati,  
 Taqdiri ham shu ekan.  
 Tabiatga insondan.  
 Mehr-u shafqat yo'q ekan.  
 Ayiqchalar zor bo'lib,  
 Onajonin kutarlar.  
 Qarab ayiq yo'lini,  
 O'ngirlardan o'tarlar.  
 Darak topmay onadan,  
 Izlab har yon chopdilar.  
 Uch soy o'tib onaning,  
 Qon daryosin topdilar.

Ezildilar bolalar,  
 Bo'ldi og'ir qiyomat.  
 Bilgin ovchi senga ham,  
 Bu hayot bir omonat.  
 Bu ahvolni yozishga,  
 Ojiz qolar qalamim.  
 O'tli nido qalbimda,  
 Keltiradi alamin.  
 Ayiqchalar yig'laydi,  
 Boshin qo'yib tuproqqa.  
 Ona goni qorishgan,  
 Yam-yashil ko'k o'tloqqa.  
 Dod solardi qizcha ham,  
 «Bu ne ishing ey falak.  
 Yovuzlarga ayiqni,

Qildirdingmi nimalak?  
Onam tashlab ketganda,  
Paymonadek to'lgandim.  
Har qanchaki mehr bor,  
Shu ayiqdan ko'rgandim.  
Ayiq bo'lsa ham onam,  
Nechun tortib olding sen.  
Boshimizga yana ne,  
Savdolarni solding sen.  
Aytchi zolim ey falak,  
Nomusniding, ormiding.  
Meni degan o'z bolam,  
Shu onamga zormiding?  
Kim onani xor qilsa,  
Baxtli kuni arisin.  
Hech ro'shnolik ko'rmasin,  
Tashvishlarda qarisin.

Kim o'ldirgan bo'lsa ham,  
Tani loyga qorishsin.  
Falaklar bu qilmishin,  
O'z boshiga solishsin.  
Zor bo'lishsin onaga,  
Ikki ko'zi ko'r bo'lsin.  
Hech niyatga yetmasin.  
Azob tortsin, xo'r bo'lsin».   
Yetim qoldi uch bola,  
Ikki ayiq, qizaloq.  
Zor-zor yig'lab qoldilar,  
Ne qilamiz ish qandoq?  
Azoblarga har qachon,  
Bo'lar ekan vaqt davo.  
Ammo nochor qizaloq,  
Yashar edi benavo.  
Falak tinmay aylanar,  
Hayot ham bir omonat.  
Kunlar o'tar hijronda,  
Oллоh berib matonat.  
Lek ovchilar tog'larga,

Yana kelib qoldilar.  
Izlab ayiq bolasin,  
Yana suron soldilar.  
Toshlar aro yurardi,  
Ikki ayiq, qizaloq.  
Bir-biriga mehribon,  
Bir-biriga do'st inoq.  
Kelib qoldi ovchilar,  
Itlar olib isini.  
Ayiqchalar uyiga,  
Bilib qolib izini.

Ayiqchani otishdi,  
Qulatishdi qoyadan.  
Bechoraning umrini,  
Hal etib shu voyadan.  
Toshda qoldi ikkisi,  
Dilda so'zin aytolmay.  
Yiqilganing yoniga,  
Yaqiniga o'tolmay.  
Ayrilganda onadan,  
Bilgan ular hijronin.  
Ayiqchaning ortidan,  
O'ldirdilar o'z jonin.  
Toshdan toshga urulib,  
Parcha-parcha bo'ldilar.  
Ko'lda edi uch yulduz,  
Ular so'nib o'ldilar.  
Yeti yoshli qizaloq,  
Shunday bo'ldi taqdiri.  
Ikki ayiq va o'zi,  
Toshda qoldi axiyr.  
Bunday yovuz ishlardan,  
Qoyalar ham silkindi.  
Lek ovchilar buni bir,  
Taqdir deya tushundi.  
Tili bo'lsa qoyaning,  
Balki u ham so'zlardi.  
Borin aytib ko'ksida,

Dodlar solib bo'zlardi:  
«Uchta jonni oldingku,  
Taqdir deya so'ylaysan.  
Aybing baland qoyadan,  
Nechun shuni ko'rmayсан»

Inson azal azaldan,  
O'z aybini ko'rmaydi.  
Hamma ishin taqdir deb,  
Peshona deb so'zlaydi.  
Gohi inson hayotga,  
O'zi qilar xiyonat.  
Hayot ham har insonga,  
Berilgan bir omonat.  
Ovchi bo'lib tog'larda,  
Uch ayiqni o'tganlar.  
Taqdir deya to'nkamang,  
Yuragi tosh qotganlar.  
Siz odamlar mehrsiz,  
Yo'q uyat-u oriyat.  
Uch jasadning ustida,  
Yig'lar ona tabiat:  
«Uch go'dakni o'ldirib,  
Zarracha or qilmading.  
Shu qizaloq qizingku,  
Senlar shuni bilmading»  
Tog'dan oshsa nohaqlik,  
Uyg'onmasmu toshlar ham.  
Bunda ona tabiat,  
To'lg'onmasmu dilda g'am.  
Ovchilar jam bo'lishib,  
Biri hayron biri lol.  
Qizaloqning jasadin,  
Ko'tardilar bema'jol.  
Yo'rgak bog'ich bo'ynida,  
Uni yechib oldilar.  
Toshlardan qabr yasab,  
Shu qabrga soldilar.

Bugun tog'lar bag'rida,  
Bir qiz qoldi bemozor.  
Bir begunoh qiz edi,  
Tilovatga qoldi zor.  
Ko'rib bunday ishlarni,  
Ko'kda oy ham yig'ladi.  
Qoya yig'lar daraxtlar,  
Hatto soy ham yig'ladi.  
Endi qaytar ovchilar,  
Men ularday bo'lmayman.  
Qanday yozay davomin?  
Bir ojizman bilmayman.  
Bir lahzada shum xabar,  
Targab ketdi qishloqqa.  
Marhum qizning onasin,  
Yetib keldi quloqqa.  
Qiz tog'larda o'sgandi,  
Ko'ksin armon ezadi.  
Bu toshme'hr onaning,  
Ko'ngli darhol sezadi.  
Yillar o'tib afsus va,  
Armonlarda qolgan u.  
O'likmi yo tirik deb,  
Gunmonlarda qolgan u.  
Shum xabarni eshitib,  
Chopdi ovchilar tomon.  
Hayrat ila bogardi,  
Unga barcha olomon.  
«Qay tog'larda u go'dak,  
Bormi undan nishona?  
Balki mening qizimdir,  
Siz ko'rgan sho'r peshona».

Ko'rsatdilar ovchilar,  
Olgan yo'rgak bog'ichni.  
Ona ko'rib dod soldi,  
Tiyolmay dil sog'inchini.  
Chopdi tog'lar oralab,  
Qabrin quechib yig'lardi.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Timas edi fig'oni,<br>Yurak bag'rin tig'lardi.<br>«Tashlab ketgan kunlarim,<br>Alam eding, dard eding.<br>Endi qoldim armonda,<br>Sen mening bolam eding.<br>Bolalikda bag'rinda,<br>Mehr ko'rmagan bolam.<br>Tog'larda yig'lab qolgan,<br>Ko'zimdən oqgan jolam.<br>Shu kungacha ayt seni,<br>Kimlar boqdi jon bolam.<br>Ko'zimdən qon oqadi,<br>Bo'g'zinga sig'mas nolam.<br>Shukr etmadim Olohga,<br>Dunyo berdi tuz berdi.<br>Bir suyakli yor berdi,<br>Nazar qildi qiz berdi.<br>Men hech shukr qilmadim,<br>Kechdim go'dak bolamdan.<br>Bor vujudim qaqshaydi,<br>Ichimdagi alamdan». | 3<br>4<br>5<br>6<br>7<br>8<br>9<br>10<br>11<br>12<br>13<br>14<br>16<br>17<br>18<br>19<br>20<br>21<br>22<br>23<br>24<br>25<br>26<br>27<br>28<br>29<br>30<br>31<br>32 |
| Quchib yig'lar qabrini,<br>«Boshdan ozor ko'rganim.<br>Onang o'lsa yaxshiydi,<br>Toshdan mozor ko'rganim»                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | 25<br>26<br>27<br>28                                                                                                                                                |
| Tashvishi ko'p dunyodir,<br>Ozi sira to'lmaydi.<br>Yaxshilarga umr yo'q,<br>Yomonlar tez o'lmaydi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 29<br>30<br>31<br>32                                                                                                                                                |
| Avling nohollikni kim tugqan ona? .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | 3                                                                                                                                                                   |
| Dugmanin ko'rolmaganlar .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 4                                                                                                                                                                   |
| Hududnin qalari bo'ldi .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | 5                                                                                                                                                                   |
| O'yna dilbar .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 6                                                                                                                                                                   |
| Qalabog'im .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | 7                                                                                                                                                                   |
| Sabr qildim .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 8                                                                                                                                                                   |
| Har lahni orzu qilma .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 9                                                                                                                                                                   |
| Meni sog'indingizmi? .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 10                                                                                                                                                                  |
| Bemordan xabar oling .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 11                                                                                                                                                                  |
| «Zaminidan unadur behisob chechak» .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 12                                                                                                                                                                  |
| Mehribonlik uyida .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | 13                                                                                                                                                                  |
| Tangrim bersin hudoval .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | 14                                                                                                                                                                  |
| Vatanim .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 16                                                                                                                                                                  |
| Yomon bo'lmagan bo'ldi .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | 17                                                                                                                                                                  |
| Toshga aylamagan mening yuragim .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 18                                                                                                                                                                  |
| Tavba qilgan odam .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | 19                                                                                                                                                                  |
| Keladur .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 20                                                                                                                                                                  |
| Bormikan .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 21                                                                                                                                                                  |
| Lola qizg'aldoq .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 22                                                                                                                                                                  |
| Mustaqillik .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 23                                                                                                                                                                  |
| Qo'rqaman .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 24                                                                                                                                                                  |
| To'rtliklar .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 25                                                                                                                                                                  |
| Qo'rqaman goh hayotda .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | 26                                                                                                                                                                  |
| Sekin tebran ey falak .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | 27                                                                                                                                                                  |
| Oqibatiz o'la .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | 28                                                                                                                                                                  |
| Ezgulik qil, ey inson .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | 29                                                                                                                                                                  |
| Iymoni unutil qo'ymagan bo'ldi .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | 30                                                                                                                                                                  |
| Vatanim .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 31                                                                                                                                                                  |
| Qiziloq va ayiqchalar haqida rivoyal .....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 32                                                                                                                                                                  |



*Adabiy-badiiy nashr*

**Umida MURODOVA**

**BAXT GULI**

**Muharrir: O. Ismonov**

**Badiiy muharrir: F. Nazarova**

**Musahhib: Sh. To'raxo'jayeva**

**Texnik muharrir: Shahriyor**

**Original maket va muqova dizayni «Akademnashr NMM»  
tomonidan tayyorlangan**

**Bosishga ruxsat etildi: 31.03.2008. Qog'oz bichimi: 84x108 1/32.  
Ofset bosma. Ofset qog'oz. Bosma t.: 3,25. Bahosi kelishilgan  
narxda. Buyurtma № 14.**

**«MEHRIDARYO» nashriyoti**

**Toshkent shahri U. Yusupov ko'chasi, 13-uy**

**«AVTO-NASHR» ShK bosmaxonasida chop etildi.**

**Toshkent shahri 8-mart ko'chasi, 57-uy**

*Kitobni qo'y-g'inas  
chopqonni deyarli  
bosmadan dengiz  
bosqonni davlat.*